

Buxoro viloyatida Kichik tadbirkorlik

Yanvar-sentabr
2019 yil

E'tibor bering!

- 2019 yilning yanvar-sentabrdagi kichik tadbirkorlikning YaHMdagisi ulushi 74,9 %ni tashkil etdi.
- 5097 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar tashkil qilindi.
- 2019 yilning yanvar-sentabr holatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 14,5 birlikni tashkil qiladi.

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yilning yanvar-sentabrida 5097 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi. Bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,2 baravarga ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdo sohasida (35,1 %), sanoat tarmog'ida (21,1 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (7,9 %), qurilishda tarmog'ida (10,4 %), yashash va ovqatlanishda (11,3 %), tashish va saqlashda (4,6 %) tashkil etilgan.

2019 yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Savdo



Sanoat



Qurilish



Qishloq, o'rmon va
baliq xo'jaligi



Yashash va
ovqatlanish



Tashish va
saqlash

2019 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	o'lchov birligi	2018 y.	2019 y.	(+/-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlik	14304	19253	4949
Yangi tashkil etilgan kichik korhona va mikrofirmalar	birlik	2282	5097	2815
YaHM	%	81,5	74,9	-6,6
Sanoat	%	44,4	33,4	-11,0
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	99,2	99,2	0
Investitsiya	%	29,7	53,3	23,6
Qurilish	%	85,7	87,2	1,5
Savdo	%	88,3	85,8	-2,5
Xizmatlar	%	73,9	69,6	-4,3
Yuk tashish	%	92,1	93,4	1,3
Yuk aylanmasi	%	83,6	86,3	2,7
Yo'lovchi tashish	%	97,0	96,1	-0,9
Yo'lovchi aylanmasi	%	96,8	96,9	0,1
Eksport	%	50,6	66,2	15,6
Import	%	36,2	50,1	13,9

**SHahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona
va mikrofirmalar**


(birlikda)

	yanvar-sentabr 2018y.	yanvar-sentabr 2019 y.
Buxoro viloyati	2282	5097
Buxoro sh.	734	1532
G'ijduvon	195	583
Romitan	239	498
Jondor	153	376
Buxoro	140	355
Shofirkon	155	305
Peshku	137	272
Vobkent	85	237
Kogon sh	103	223
Qorako'l	97	222
Kogon	119	215
Olot	68	172
Qorovulbozor	57	107

2019 yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Buxoro shahrida - 1532 ta, G'ijduvon tumanida - 583 ta, Romitan tumanida - 498 ta. Eng past ko'rsatkichni Qorovulbozor tumanida— 107 ta,Olot tumanida - 172 ta va Kogon tumanida - 215 tani tashkil etgan.



2019 yil yanvar-sentabr holatiga yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %



2019 yil yanvar-sentabr holatiga shahar va tumanlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Buxoro.shahrida - 30,0 %, G'ijduvon tumani - 11,4 % Romitan tumani - 9,8 %, Jondor tumani – 7,4 %, Buxoro tumani – 7,0 %, Shofrikon tumani 6,0 %-%, Peshku tumani - 5,3 %, Vobkent tumani - 4,6 % , Qorako'l tumani - 4,4 %, Kogon shahar - 4,4 %, Kogon tumani - 4,2 %, Olot tumani - 3,4 % va eng past ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida - 2,1 % ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan
kichik korxona va mikrofirmalar**

(birlikda)

	yanvar-sentabr 2018 y.	yanvar-sentabr 2019 y.
Jami	2282	5097
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	402	402
Sanoat	410	1074
Qurilish	355	528
Savdo	419	1791
Tashish va saqlash	93	235
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	207	576
Axborot va aloqa	34	39
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	78	61
Boshqa turdag'i xizmatlar	284	391

2019 yil yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar eng ko'p tashkil etgan:

Savdoda - 1791 ta.;

Sanoatda –1074 ta.;


Qurilishda –528 ta.;

Yashash va ovqatlanishda –576 ta.;

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida –402 tani tashkil etdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar to'g'risida ma'lumot



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar savdoda –1791 ta, sanoatda –1074 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 576 ta, Qurilishda — 528 ta, qishloq,o'rmon va baliq xo'jaligida –402 ta, boshqa turdag'i xizmatlar 391 ta,tashish va saqlashda –235 ta, sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda –61 ta axborot va aloqada - 39 tani tashkil etdi.


Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar

birlikda

	yanvar-sentabr 2018 y.	yanvar-sentabr 2019 y.	farq (+-)
Buxoro sh.	734	1532	798
G'ijduvon	195	583	388
Romitan	239	498	259
Jondor	153	376	223
Buxoro	140	355	215
Shofrikon	155	305	150
Peshku	137	272	135
Qorako'l	97	222	125


2019 yil yanvar-sentabrida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'sish Buxoro shahrida –798 taga, G'ijduvon tumanida –388 taga, Romitan tumanida - 259 taga, Jondor tumanida bu ko'rsatgich–223 taga o'sishni tashkil etdi. Eng past ko'rsatkichni Qorovulbozor tumanida— 50 taga , Olot tumanida— 104 taga va Kogon shahrida - 120 tani tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2019 yilning 1-oktabr holatiga kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tumanllar va shaharlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Qorovulbozor tumanida 32,3 birlikda, Buxoro shahrida 23,5 birlikda, Kogon tumanida 21,2 birlikda, Romitan tumanida 17,2 birlikda, Buxoro tumanida 15,9 birlikda, Peshku tumanida 14,5 birlikda va Jondor tumanida 14,4 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich birlik oralig'ida Shofirkon tumanida 12,9 birlikda, Kogon shahrida 12,0 birlikda, Olot tumanida 11,7 birlikda va Vobkent tumani 9,9 birlikda aniqlandi. G'ijduvon tumanida 9,6 birlikda va Qorako'l tumanida 8,2 birlikda ushbu ko'rsatkich bu tumanlarda past bo'lib qolmoqda.

Tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).




Agar, 2018 yilning 1 oktabrda kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 13,0 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 14,5 birlikka yetdi va 2018 yilga nisbatan 1,5 birlikka ko'paydi.

**Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga.**



Quyida, 2019 yilning yanvar-sentabrida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 33,4%, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida-99,2%, qurilishda-87,2 %, investitsiyada-53,3%, savdoda-85,8%, eksportda-66,2%, importda -50,1% va xizmatlar sohasidagi 69,6 % ulushi aniq ko'rsatilgan.

2019 yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlarida kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi




2019 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi 74,9 % ni tashkil qildi (2018 yilning yanvar-sentabrida 81,5 %). YaHM tarkibida pasayishga olib kelgan.

Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining dinamikasi yanvar-sentabr holatiga, %


2018 - y.




2019 - y.



74,9%



Kichik tadbirkorlikning ulushi
(umumi hajmiga nisbatan %da)



● yanvar - sentabr 2018-y ● yanvar - sentabr 2019-y

**2019 yil yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning
shahar va tumanlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, (%)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Buxoro viloyati	33,4	87,2	69,6	53,3
Buxoro shahar	68,0	92,1	56,1	55,0
Kogon shahar	40,7	97,5	88,0	44,6
Tumanlar				
Olot	49,0	69,9	91,5	21,0
Buxoro	79,7	86,5	97,1	74,7
Vobkent	100,0	98,0	92,6	78,8
G'ijduvon	58,8	99,9	93,3	84,6
Kogon	98,4	91,9	89,0	48,1
Qorako'l	53,4	91,1	98,3	64,8
Qorovulbozor	0,8	26,6	37,0	65,2
Peshku	57,3	100,0	94,4	82,5
Romitan	19,8	87,2	93,0	19,7
Jondor	55,1	100,0	90,7	65,3
Shofirkon	82,0	94,1	92,4	65,8

Shahar va tumanlar kesimida **sanoat** sohasining yuqori ulushini Vobkent (100 %), Kogon (98,4 %) va Shofirkon (82,0 %) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda - Peshku (100 %), ,Jondor (100 %) va G'ijduvon tumanlarida (99,9%) ni tashkil etadi.


Xizmatlar sohasida Qorako'l (98,3 %), Buxoro (97,1 %),Peshku (94,4 %), G'ijduvon (93,3%) va Romitan tumanlarida (93,0%) tashkil etadi.

Investitsiya sohasida G'ijduvon (84,6 %), Peshku(82,5 %) , Vobkent (78,8 %) va Buxoro (74,7 %) tumanlar tashkil etadi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2019 yilning yanvar-sentabrida


-
- 1  Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 3561,3 mlrd. so'mnni (jami sanoat ishlab chiqarishning 33,4 %); yoki 2018-yilning yanvar-sentabriga nisbatan sanoat maxsuloti indeksi 123,1%ni tashkil qildi;
 - 2  3825,1 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiyligi hajmining 53,3 %) o'zlashtirildi va 2018 yilning yanvar-sentabriga nisbatan 172,9%ni tashkil qildi;
 - 3  2869,3 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 87,2 %) bajarildi va 2018 yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 119,6 %ni tashkil qildi;
 - 4  4022,9 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (viloyat jami xizmatlar hajmining 69,6 %), 2018 yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 105,8 %ni tashkil qildi;
 - 5  chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 85,8 % yoki 6081,9 mlrd. so'mi (o'sish sur'ati 105,0 %ni tashkil qildi) shakllantirildi;
 - 6  133,3 mln. AQSH dollarasi (umumiyligi eksport hajmining 66,2 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2018 yilning yanvar-sentabriga nisbatan 67,3 mln. AQSH dollariga yoki 2,0 barobarga ko'p avtomobil transporti yuk aylanmasining 7,4 %ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 86,3 %) ko'payishi ta'minlanadi;
 - 7  yo'llovchi aylanmasining esa 2,6 %ga (umumiyligi yo'llovchi aylanmasining 96,9 %) ko'payishi ta'minlandi.

Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmat)larning, jami eksport hajmi-dagi ulushi, %



2019 yil yanvar-sentabr holatiga shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmat)larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Vobkent tumani - 100%, Kogon tumani - 100%, Peshku tumani –100%, Romitan tumani –100%, Buxoro tumani –93,7%, Shofrikon tumani - 92,2%, Buxoro shahar - 73,3% Qorako'l tumani– 67,9 G'ijduvon tumani 53,8% Jondor tumani 48,0% Olot tumani 45,3% Kogon shahar 18,7% Qorovulbozor tumani - 7,5 %, ni tashkil etdi.


2019 yil yanvar-sentabrida shahar va tumanllar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati



Shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Buxoro shahri (914,5 mlrd. so'm), Kogon tumani (411,8mlrd. so'm), Buxoro tumani (369,3 mlrd so'm) va G'ijduvon (342,0 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Peshku (104,6 mlrd. so'm) va Qorovulbozor tumanida (36,4 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




2019 yil yanvar-sentabr holatiga jami sanoat maxsulotidagi kichik tadbirkorlikning shahar va tumanlar bo'yicha ulushi, %



Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorliknining jami sanoat maxsulotidagi eng yuqori ulushi Vobkent tumani (100 %), Kogon tumani (98,4 %), Shofirkon tumani (82,0%), Buxoro tumani (79,7 %), Buxoro shahri (68,0 %), G'ijduvon tumani (58,8 %) va Peshku tumani (57,3 %), Romitan tumani (19,8%) va Qorovulbozor tumanlarida (0,8 %) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.


2019 yil yanvar-sentabrida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



SHahar va tumanlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Buxoro shahri (1859,3 mlrd.so'm), G'ijduvon (1099,2 mlrd.so'm), Qorako'l (594,8 mlrd.so'm), Romitan (396,0 mlrd.so'm), va Jondor (367,4 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




2019 yil yanvar-sentabrida shaharlar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va sura'ati



Shahar va tumanlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Buxoro shahri (679,3 mlrd.so'm), G'ijduvon (319,2 mlrd.so'm) Kogon, (275,9 mlrd.so'm) va Shofirkon (229,8 mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi.




2019 yil yanvar- sentabrida shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirdorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati



Shahar va tumanlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Buxoro shahri (1970,4 mlrd.so'm), G'ijduvon (472,2 mlrd.so'm) Buxoro (215,7 mlrd.so'm), Vobkent (188,9 mlrd.so'm) va Kogon sh (169,9 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019 yil 3 - chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 136 ta respondentlar ishtirok etdi. Ulardan sanoat korxonalari - 30 (ishtirok etgan respondentlarning umumiyligi sonidan 22,1 %), qurilish -15 (11,0 %), savdo - 44 (32,4 %), xizmatlar sohasi -34 (25,0%), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 13 (9,5%) tashkil etdi.

**2019 yil III - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan
yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**




Shahar va tumanlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning ulushi Buxoro shahrida—33,1 %, Romitan tumanida –11,1 %, G'ijduvon tumanida –10,3%, Buxoro tumani– 8,1%, Shofirkon tumani –5,1 %, Jondor tumani –5,1%, Olot tumani - 5,1% Peshku tumanla –4,4 %, Vobkent tumani –4,4 %, Kogon tumanida –3,7 % Kogon shahrida– 3,7 % Qorako'l tumani– 3,7%, va Qorovulbozor-2,2 % ni tashkil qildi.

2019 yil III– chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi, birlik




2019 yil III– chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining shahar va tu-



Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 40,0 % iqtisodiy vaziyatni - qulay va 26,7 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida - 63,6 % va 34,1 %, Xizmatlar sohasida-58,8 % va 32,4 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 61,5 % va 30,8 %, sanoatda - 40,0 % va 60,0 % ni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda-mavjud emas, qurilishda - 33,3 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida - 7,7 %, xizmatlarda - 8,8 % va savdoda - 2,3 %ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2019 yil III–chorak uchun, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 93,3 % sanoat korxonalari, 93,2 % - savdo, 85,3 % - xizmatlar, 76,9 % - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 80,0 % - qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko'rilibotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobjiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

**Buxoro viloyat Ishbilarmonlik muhiti
kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish
statistikasi bo'limi: nashr uchun mas'ul
F.Hakimova**

**Tel: (0371).230-83-03
(0365) 223-81-96**